

SHUKUR XOLMIRZAYEVNI XOTIRLAB

Ubaydullayeva Jamila Xurramovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi,

Ko‘charova Dildora Karim qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning ijodiga bog‘liq ishlar va adibning ijodiy mahorati haqida so‘z yurildi. Ijodkorning hikoyalari, qissalari va romanlarining g‘oyalari tahlil etildi. Adibning ibratli hayot yo‘liga nazar tashlandi.

Kalit so‘zlar: Nasr, hikoya, qissa, romanlar, adabiy portretlar, ilmiy tadqiqotlar. O‘zbek adabiyotida realistik nasr namunalari paydo bo‘lganidan so‘ng bu narsa mamlakatning chekka hududlaridan biri bo‘lgan Surxondaryoda ham asta-sekin nasrda ijod qiladigan ijodkorlar paydo bo‘la boshladi. Surxon nasrining vakillari haqida so‘z yuritganda ularning yoshiga emas, ijodga ilk qadami, milliy adabiyotimizda tutgan o‘rniga qarab ketma-ketlikda so‘z yuritishni lozim deb topdik.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda ilk namoyanda sifatida Shukur Xolmirzayev haqida gapirish o‘rinli bo‘ladi, nazarimizda. Surxondaryolik ijodkorlar orasida ilk nosirlardan biri sifatida o‘zbek adabiyotida yuqori pog‘onalarni zabit etgan Shukur Xolmirzayev ijodining o‘ziga xosligi, tasvir va ifoda usulining o‘zgachaligi bilan kitobxonlar qalbidan joy egalladi. O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhordan so‘ng o‘ziga xos hikoyachilik mакtabiga asos solgan adib O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, “Mehnat shuhrati” ordeni kabi yuksak mukofotlarga loyiq ko‘rilganligi ham uning ijodi chin ma’noda e’tirofga loyiq ekanligining dalilidir.

Shukur Xolmirzayev o‘zining rang-barang va sermazmun ijodi bilan hozirgi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarishga samarali hissa qo‘sghan zabardast adibdir. XX asr o‘zbek nasrining 60-70-yillardan keyingi taraqqiyotini bu o‘ziga xos yozuvchi ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

1940-yilning 24-martida Surxondaryoning Boysunida tug‘ilgan Shukur Xolmirzayev maktabda o‘qib yurgan paytlaridayoq ijod qila boshlagan. Ilk

hikoyalari tuman gazetasida bosilgan. Adib Toshkent davlat universitetini tamomlagach “Yosh gvardiya” nashriyotida, “Guliston”, “Sharq yulduzi” jurnallarida, ma’lum muddat Muqimiy nomidagi teatrda turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatgan. So‘ng butun umrini badiiy ijodga bag‘ishlagan adibning asosiy tarjimayi holi: orzulari, dardlari, armonlari; amalga oshirgan, amalgaligi oshirolmagan ishlari; nafratlari-yu sevinch iztiroblari, o‘zidan, do‘stlaridan, idealidan o‘tgan sifatlar uning asarlari bag‘rida yotadi.

Hikoyachilikda qalamini charxlagashdan boshlagan adib keyinchalik bir qator qissalar, so‘ngra esa romanlar yaratgan. Adibning “Bodom qishda gulladi”, “Yashil niva”, “Notanish odam”, “Zov ostida adashuv”, “Olma yemadim”, “Olis yulduzlar ostida” kabi ko‘plab hikoyalari o‘zbek hikoyachiligi durdonalariga aylangan. Ularda tabiat manzarasi, turfa insonlar xarakteri, nozik ruhiy holatlar mahorat bilan tasvirlangan.

Adib keyinchalik yaratgan “Bukri tol”, “O’n sakkizga to‘lmagan kim bor”, “Bulut to‘sigan oy” qissalarini, asosan, yoshlarga bag‘ishlagan. Zamonani, o‘tmishni kuzatish, sinchiklab o‘rganish, xalqning his-tuyg‘ulari, dardi va orzularini aks ettirishga bo‘lgan talab hamda hikoya va qissa janrlarida orttirilgan tajriba yozuvchini turli yo‘nalishdagi romanlar yozishga undagan. “So‘nggi bekat” (1976), “Qil ko‘prik” (1978-1982), “Yo‘lovchi” (1987), “Olabo‘ji” (1991), “Dinozavr” (1996) singari asarlar Shukur Xolmirzayevni jiddiy izlanuvchan romanavis sifatida tanitgan.

Romanlarda ham adib o‘z ijodiy yo‘nalishi va uslubiga sodiq qolgan. Xalqimiz hayotining burilish pallalarini, yurtdoshlarimiz taqdiridagi muhim jarayonlarni, o‘zbekni o‘zbek qilgan fazilatlarni, bir so‘z bilan aytganda, millat ruhini aks ettirish bu romanlarning ham yetakchi xususiyatidir.

Ijodkorning badiiy mahorati haqida bir qator ishlar qilingan, tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, H.Karimovning “Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti” nomli risolasi, akademik B.Nazarovning “Shukur Xolmirzayev” deya nomlangan ijodiy portreti yaratilgan, yana yozuvchi hikoyalari haqida U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo‘ldoshev, H.Boltaboev, O.Otaxonov, R.Qo‘chqorov kabi olimlar, qissalari to‘g‘risida esa M.Qo‘shjonov, A.Rasulov, M.Olimov kabi adabiyotshunoslar, romanlari yuzasidan U.Normatov, I.G‘afurov, S.Sodiqov va boshqa olimlarning katta-kichik ilmiy maqolalari e’lon qilingan. Biroq bu tadqiqotlarda adib ijodining ayrim qirralarigina yoritilgan edi xolos. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari yozishdagi badiiy mahorati, so‘z qo‘llash san’ati, tasvirlash uslubi haqida keng ko‘lamdagи ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Jumladan,

G.N.Tavaldiyeva, Sh.Doniyorova kabi adabiyot ilmi bilimdonlari yozuvchining hikoyalaridagi o‘ziga xos tasvir uslubi, voqelikni badiiy idrok etish tamoyillari xususida ilmiy xulosalar bergenlar.

Taniqli adabiyotshunos Umarali Normatov Shukur Xolmirzayevni ilk marta uchratgani va uning ijodiy mahorati haqida quyidagicha xotirlaydi: “...Domla uni Shukur Xolmirzayev deb tanishtirdilar. Domlaning iltimosiga ko‘ra u yangi qissasini o‘qiy boshladi. Ilk daqiqalardayoq asar davra ishtirokchilarini o‘ziga maftun etdi-qo‘ydi. Men shu paytga qadar o‘zbek adabiyotida bu xil uslubda bitilgan nasriy asarni o‘qimagan edim. Oradan ko‘p o‘tmay asar bosilib chiqdi. “To‘lqinlar” nomi ostida chiqqan bu qissa el og“ziga tushdi, ulkan adib Abdulla Qahhor qissa muallifini olqishlab unga maktub yo‘lladi. Abdulla Qahhor xonadonidagi gurunglarda adibning Shukur haqida aytgan ko‘p iliq gaplarini eshitganman. Bir gal u: “Shukur kulta tishini oqini ko‘rsatmay kuladi; yig‘lasa ko‘zyosh to‘kmay yig‘laydi. Prozaik yozuvchi uchun bu — noyob fazilat”, — degan edi. Shukur uslubi haqida bundan oshirib bir gap aytish qiyin”[2, 320-321].

Shukur Xolmirzayev asarlari bilan o‘zbek adabiyotini quruqshab qolishidan asrab qolgan, adabiyotning tekin mardikori bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adabiyot va san’at uning ayni hayoti bo‘lgan. Adib el-yurt oldidagi xizmatlari uchun munosib taqdirlangan. U “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni va O‘zbekiston davlat mukofoti sovrindoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н. Йўлдошев. Адабий лавхалар. –Т.: 2013.
2. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Sharq”, 2007. –352 b.
3. Quronov D. adabiyot nazariyasi asoslari. –Т.: Navoiy universiteti, 2018. – 480 b.
4. Норбоев И. Тоғ сўқмокларида. Хикоялар. –Тошкент: “Ёш гвардия”, 1983. -48 б.